

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466



ISSN 2181-6875

3/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



3/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Zikrillayev G'.N., Ro'ziyev Y.B., Safarov F.S.	Istiqlol va tilshunoslik metodologiyasi	3
Yuldasheva D.N., Hojiyeva S.H.	Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy-madaniy xususiyatlarning fonopoetik ifodasi	19
Qurbonova Z.A.	Function of color lexical words, their semantic meaning and translation (in the example of the concepts "white" and "black")	25
Safarova M.Z.	Buxoro toponimiyasida miqdor ifodalovchi so'z asosli etnotoponimlarning o'rni	30
Sulaymonova M.Sh.	Metaforaning jahon adabiyotida o'rganilish tarixi	35
Рузиева М.Х.	Проявление эпитета в виде многозначных прилагательных	41
Джафарова Д.И.	Вербал ва новербал алоқа муносабатларининг таржима жараёнида таржима қилиш муаммолари	46
Toshtemirova S.	Colour naming: semantics of the colour red in english	51
Tojiyeva K.N.	Koreys tilida (Janubiy Koreya) iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarning genetik tahlili	55
To'rayeva U.E.	Tilning madaniy normalar, qadriyatlar va an'analarni uzatishdagi roli	61
Soibova G.B.	Lingvokulturologiya tilshunoslikning bo'limi sifatida	66
Sobirova N.G'.	Qoidalarga asoslangan imlo tekshirish usullari	70
Bozorov Z.A.	“Sog'lik” konsepti asosida shakllangan maqollar tadqiqi	76
Davronova Z.B.	Modeling language activity as a scientific text tool	80
Ziyoyeva D.A.	Paradigm in linguistics: a scientific overview	85
Yusupova D.Y.	Adabiy manbalarda qimmatbaho tosh nomlari	89
Ermetova J.I., Xo'sinova Z.X.	The linguacultural exploration of metaphors and revealing their cultural values through human character expressions	93
Xamidova M.H.	Fransuz va o'zbek tillarida metonimlarning lingvomadaniy xususiyatlari	97
Usmonova U.B.	Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarda nutqiy aktlarning faollashuvi	103
Usmonov A.Q.	Muloqot jarayonida kulgi uyg'otuvchi vositalar va birliklar	107
Ubaydullayeva M.O'.	Frazologik birliklarning ma'no, grammatik va funksional jihatlar	111
Asadov T.H.	Ot va sifat turkumidagi oraliq so'zlarning ayrim funksional-semantik tabiati xususida	118

Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A.	Graduonimlar tadqiqi	122
Haydarov A.A., Barnoyeva M.A.	O'zbek va ingliz badiiy adabiyotida antonimik tuzilmalarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	127
Elchaev Z.A.	A study on the grammatical features of behavioral verbs in english and uzbek, including derivation, classification, and syntax	133
Islomova Sh.I.	Badiiy matnda qo'llangan tibbiy birliklar badiiyati	137
Ismoilova M.Q.	O'zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining semantik xususiyatlari	142
Jalolova F.N.	Milliy konseptosferalar tadqiqining lingvomadaniyatshunoslikka doir aspektlari	146
Matmurotova U.B.	Bilvosita tarjimada stilistik vositalar tahlili	151
Muxammadiyev S.B.	Comparative analysis of livestock vocabulary in uzbek and english languages	155
Nurova F.K.	O'zbek tiliga asoslangan qidiruv tizimida lingvistik ta'minotning o'rganilishi va ahamiyati	159
Ochilova S.N.	O'zbek tilining umumiy izohli lug'atlarida xulq-atvor fe'llarining statistik tavsifi	163
Omarova D.T.	Matnlarni perefranz qilish masalasining tadqiqi	168
Qarshiboyeva A.S.	Xitoy tilida muzeyga doir atamalar tahlili	174
Samandarova G.Y.	Maqollarda raqamlar timsoli (rus xalq maqollari asosida)	178
Sayfullayev X.J.	Frazeologik birlik lingvomadaniyat sifatida	184
Djuraeva G.N.	Badiiy asarlarda barqaror birikmalarning tarjima qilish usullari	190
Mansurova G.M.	Chet tillarini o'rganishda nemis yoshlari jargoni: xususiyatlari va funksiyalari (youtube video materiallari asosida)	194
Suyarova N.Y., Eshankulova Ch.N.	Metaforalarning o'zbek va ingliz tilshunosligida o'rganilishi	198
G'apporova D.I.	Media linguistics as a linguistical research object (on the example of english and uzbek studies)	202
Gafurova G.B.	Publitsistik matnlar tarjimasida pragmatik intensiyaga erishish usullari (ingliz va o'zbek gazeta materiallari misolida)	208
Hojiyeva M.G'.	O'zbek va ingliz adabiyotida taom leksikasining lingvokulturologik talqini	212

**ZULFIYA MO'MINOVA SHE'RIYATIDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNING
FONOPOETIK IFODASI**

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

yuldasheva21dilorom@gmail.com

ORCID ID [ORSID 0000-0003-1976-5575](https://orcid.org/0000-0003-1976-5575)

Hojiyeva Sadoqat Hamzayevna,

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

sadosh2605@gmail.com

Annotatsiya. Tilshunoslikning yangi yutuqlarga erishishi, uning boshqa sohalar bilan integratsiyasi pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, gender tilshunoslik, lingvopersonologiya, lingvokulturologiya, lingvopoetika, narralingvistika kabi yangi-yangi fan va sohalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Hozirda mazkur sohalariga qiziqish kuchayganligi va shu yo'nalishlarda ham ko'zga ko'rinarli ishlarning amalga oshirilyaptiki, mazkur ishlarning milliyligimiz zaminidan uzilmagan holda jadallashuvi, tabiiyki, yurtimizning milliy mustaqillikka ega bo'lishi bilan bog'liq. Til, uning ifodalanish shakllari va badiiy matnda til vositalarining tutgan o'rini belgilash bilan bog'liq masalalar – tilshunoslikning asosiy obyekti va muammolaridan biri hisoblanadi hamda u nihoyatda mashhaqqatli va ko'pqirrali jarayonlarni qamrab oladi. Badiiy matnda nutqiy hosilalar, jumladan, fonopoetik vositalarning tutgan o'rini shoir she'riyati leksikasi misolida tahlilga tortish ham shu jihatga daxldor.

Kalit so'zlar: nutqiy voqelik, diskurs, lingvoma'naviyat, lingvomadaniyat, milliy-madaniy xususiyatlarning fonopoetik ifodasi.

**ФОНОПОЭТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ
ОСОБЕННОСТЕЙ В ПОЭЗИИ ЗУЛФИИ МОМИНОВОЙ**

Аннотация. Новых достижений языкознания, его интеграция с другими областями привели к появлению таких новых наук и направлений, как прагматлингвистика, когнитивная лингвистика, этнолингвистика, нейролингвистика, гендерная лингвистика, лингвоперсоналогия, лингвокультурализм, лингвопоэтика, нарратлингвистика. В настоящее время интерес к этим областям возрос и в этих направлениях ведутся заметные работы, причем ускорение этих работ без отрыва от основ нашей народности закономерно связано с обретением национальной независимости нашей страны. Язык, формы его выражения, вопросы, связанные с определением места языковых средств в художественном тексте, являются одними из основных объектов и проблем языкознания и охватывают чрезвычайно сложные и многогранные процессы. С этим аспектом связан анализ места речевых дериватов в художественном тексте, в том числе фонопоэтических средств, на примере лексики поэзии поэта.

Ключевые слова: речевая реальность, дискурс, лингводуховность, лингвокультура, фонопоэтическое выражение национально-культурных особенностей

**PHONOPOETIC EXPRESSION OF NATIONAL-CULTURAL FEATURES IN THE POETRY
OF ZULFIYA MOMINOVA**

Abstract. New achievements in linguistics and its integration with other fields have led to the emergence of such new sciences and directions as pragmatlinguistics, cognitive linguistics, ethnolinguistics, neurolinguistics, gender linguistics, linguapersonology, linguaculturalism, linguapoetics, and narralinguistics. At present, interest in these areas has increased and significant work is being carried out in these areas, and the acceleration of this work without breaking away from the foundations of our nationality is naturally connected with the acquisition of national independence by our country. Language, its forms of expression, questions related to the definition of the place of linguistic means in a literary text are among the main objects and problems of linguistics and cover extremely complex and multifaceted processes. This aspect is associated with the analysis of the place of speech derivatives in a literary text, including phonopoetic means, using the example of the poet's poetry vocabulary.

Keywords: *speech reality, discourse, linguospiritality, linguoculture, phonopoetic expression of national and cultural characteristics.*

Badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon bo'lib, nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog'lanib, o'zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi" [1,8].

Til vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash badiiy matnlarga tayanishni, qator shoir va yozuvchilar asarlarini tahlil doirasiga tortishni taqozo qiladi. Tilshunoslikda badiiy matn lingvopoetikasini o'rganish bo'yicha ayrim ishlar yuzaga kelgan bo'lsa-da, o'zbek she'riyatida o'ziga xos ovozga ega shoir Zulfiya Mo'minova she'riyati va uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq doirasidan chetda qolmoqda. Shuning uchun Zulfiya Mo'minova she'riyati lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqot obyekti sifatida maxsus tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda asosan,

alliteratsiya (undoshlar takrori),

assonans (unlilar takrori),

geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi [8;9].

Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda "aynan" ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Afrotun va Arastu yashagan zamonlardayoq so'zning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga ko'chirish muammosi mutafakkirlar e'tiborini o'ziga jalb qilgan edi. Hatto bu notiqlik san'ati bilan bog'liq bo'lmagan ravishda, so'zning, so'zdagi harflarning talaffuzi bilan bog'liq ohanglar garmoniyasi buyuk faylasuflarga ilhom manbayi bo'lgan edi. Ular so'z tarkibiga singib o'ziga xos ma'no va ohang kasb etib ulgurmagan harflarga ham o'zgacha mazmun berishga intilishgan edi. Masalan, [r] harfi – tezlikning, shiddatning ramzi, [I]–harfi viqoming, sillilikning, yaltiroqlikning ifodachisi, [i] – toming, [a]– keng va kattaning, [e] –abadiyatning belgisi sifatida talqin qilingan. Keyinroq tovushlar tabiati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar [u], [d], [r] tovushlari dahshatni yodga solishi, [i] xursandchilikning, [m], [n], [i] tovushlari nazokatning sirli ramzlari ekanligi haqidagi mulohazalarini bayon qilishgan. Tovushlarga, ayniqsa, harflarga bu tarzda ma'no yuklash, albatta, jiddiy ilmiy asoslarga ega emas. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan foydalanadilar [5,17]. Masalan,

1. Unlilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlini cho'zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali lirik qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me'yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanilishi ta'kidlanadi. Masalan,

Belgining kuchsizligi, davomiyligi:

Bobolarning ertaklarida

Sut qaynagan buloqlar ke-etti.

Momolarning ertaklarida

Qor yog'magan qishloqlar ke-etti...

Keti-ib qoldi bolalik bog'im,

Ergashtirib eng boy bo'zorni.

Endi o'zi kurar tomlar ham

O'z boshiga to'kilgan qorni. ("Siz she'rga sig'maysiz" badihasidan)

Belgining ortiqchiligi: (Osvensimda urushning dahshatli guvohi, yondirilgan bolalarning tuflichalari saqlanadi.) Aytish zarurki, shoiraning yigirmadan ortiq she'rlari urushning dahshatli, og'riqli oqibatlariga bag'ishlangan. Ikkinchi jahon urushidan qariyb yetmish yil berida turib ham shoir manfur urushning oqibatlarini his etib turadi.

Tuflichala-a-ar...

*O'sha qora kunda, notinch hovlida
Bolalar oyog'in o'pi-ib yig'ladi.
Bog'chalar yo'lida, maktab yo'lida
O'hlari tinishini kuti-ib yig'ladi.*

Tuflichala-a-ar...

*Biriga qirmizi qon dog'i tekkan,
Birining poyi yo'q, birin ipi yo'q.
Yirtilgan, qonxo'rning pichog'i tekkan
Birining yonini shilib o'tgan o'q. ("Tuflichalar" she'ridan) [6,47]*

Shuningdek, badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarini ifodalashda ham foydalaniladi. Masalan,

*Gulyor Xanjar bobo, gul boshingizdan,
Siz kechgan dunyodan kechib bo'lmaydi.
Bir kosa qo'yishdi g'am oshingizdan,
O-O, ko'zyosh tomgan oshni ichib bo'lmaydi.*

(“Xanjar aravakash xotirasiga” she'ridan) [7,43]

Mazkur fonografik usuldan badiiy matnda xitob, chaqirish, da'vat, tinglovchi e'tiborini jalb qilish kabi maqsadlarda ham foydalanilishini kuzatish mumkin. Masalan, chaqirish:

*Ho-oy oq ilon, oppoq ilon,
Bu yo'ldan yig'lab qaytdim:
Tushlar ko'rdim men yomon,
Tushimni suvga aytdim.
Baridan to'ygan jonday,
Tonglar tushlarim oqdi.
Suvga tashlangan nonday,
Aql-u xushlarim oqdi. ("Hoy oq ilon" she'ridan)*

2.Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik me'yor bo'yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo'lgan so'zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiv va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. So'zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursandlik kabilar) va maqsadini kitobxonga “aynan” yetkazish uchun ijodkorlar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bunda belgining me'yordan ortiqqligi, harakatning davomiyligi yoki oniyliigi (bir onda ro'y berganligi), takroriyligi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi ma'nolar ifodalangan bo'ladi. Ammo shoira Zulfiya Mo'minova undoshlarni majburan qavatlamaydi. Grammatik talablarga mos qavatlangan undoshlardan mahorat bilan foydalanishga harakat qiladi. Masalan,

belgining ortiqqligi:

*...Xotirga jarrohlik qilolmadi u,
Xotirot yashaydi yaraga to'lib.
U kelaveradi suvga ketgan-u,
Hech qachon qaytmagan hamshira bo'lib.
Go'zal yoshligini yetaklab ketdi
Yo'qolgan o'rmonlar, yo'qolgan yo'llar.
Tim qora sochiga oq tashlab ketdi
Kesilgan oyoqlar, kesilgan qo'llar.
Xotirot chuqurroq ochilar ekan,
Mahkamroq bekitar u qulog'ini.
Eslamoqchi emas bo'linib yotgan
Qaysidir onaning chaqalog'ini.*

(“Vrach Muqaddama Ashrapovaga” she'ridan)

Harakatning davomiyligi:

*Mening bobolarim muhabbat haqqi
Toshlarni taroshlab toj mahal etgan.
Mening momolarim Alpomishni
Umr bo'yi kutgan, intizor kutgan. ("Mening bobolarim" she'ridan)
Vatan deganimda, ko'zimda qalqagan,
Sevinch yoshlarimni arturman men ham.
Vatan – deya kelib, Vatan – deb ketgan,
Asl zotlarimga torturman men ham. ("Mening bobolarim" she'ridan)*

Harakatning oniyliigi:

Hozir bu yurak taqqa to'xtaydi...

Shartta xotiradan kechib bo'lmaydi...

Ovoz kuchining balandligi:

Ohhh! Xotirada gulxan yoqib,

Dilni cho'g'latgan yigit.

Bizni kuldirgan yigit,

Bizni yig'latgan yigit.

Ilohi jannatlarni

To'rlarini ko'rgan bo'l.

Jannatlarga hurlarga

She'rlar aytib yurgan bo'!

(“Kursdoshim shoir Ravshan Fayzni eslab” she’ridan)

Ovoz kuchining pastligi:

Jimmm... *Bog'larda uxlayapti kuz...*

3. So'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish. Og'zaki nutqda turli sabablarga ko'ra ayrim so'zlar, ba'zan o'zlashma so'zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xato so'zlovchining o'zlashgan so'z imlosini to'g'ri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi, deb izohlash mumkin. She'riyatda bu usuldan lirik qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og'zaki – jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida ham foydalaniladi. (Ayrim o'rinlarda kulgi qo'zg'atish maqsadida ham so'zlar atayin buzib talaffuz qilinadi va o'sha tarzda yoziladi.) Masalan,

Ertaga urushga jo'nab ketar u...

Go'shanga, kelinchak, oq libos va sham

Titradi: Vatan, bu—eng buyuk qayg'u,

Titradi: Vatan, bu—eng muqaddas g'am.

Ikki yosh yurakka daxldor so'zlar

Xotir sandig'iga taxlab tashlandi.

Sog'inchda yig'lagan bahorlar, kuzlar

Xotir sandig'iga mixlab tashlandi.

(“Beshiklarni asragin dunyo” she’ridan)

Oydin oqshom g'azal aytgan,

Oydin dil tarafdaman.

Parishtalar olma otgan

Oynako'l tarafdaman. (“Fozil el tarafdaman” she’ridan)

Alliteratsiya. Badiiy nutqning ohandorligini va ta'sirchanligini ta'minlashda alliteratsiyaning o'rni beqiyosdir. She'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan sharq she'riyatida keng qo'llanilib kelingan. Ko'hna badiiyatshunoslik (“ilmi bade”)da alliteratsiya “tavzi' san'ati” deb yuritilgan.

Nasrda alliteratsiyadan foydalanish badiiy effekt berishi qiyin. Shuning uchun nasrda kamdan kam hollardagina alliteratsiyani kuzatish mumkin bo'ladi [3,67].

Shoira Zo'lfiya Mo'minova she'riyatida sof (to'liq) alliteratsiyadan foydalangan o'rinlar deyarli uchramaydi. Ammo qisman alliteratsiyali o'rinlar mavjud. Masalan,

Qirmizi qaboqdaman,

Qizil gul tarafdaman,

Bargida durri shabarro'z

Atirgul tarafdaman. (“Fozil el tarafdaman” she’ridan)

Oydin oqshom g'azal aytgan,

Oydin dil tarafdaman.

Parishtalar olma otgan

Oynako'l tarafdaman. (“Fozil el tarafdaman” she’ridan)

Ko'zim Vatan, qaro ko'zing Qiyolarga alishmasman. Qahratonda qorlarining Javzolarga alishmasman. (“Alishmasman” she’ridan)

Mana turna qaytdi, qaytdi qumrilar, qay daraxt yig'ildi, qay tosh surildi, Boshga tushganini ko'z-la ko'rilar, Turnalar qaytguncha omon bo'laylik. (“Omon bo'laylik” she’ridan)

Assonans. Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsionalik, ekspressivlik bag'ishlash maqsadida qo'llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin

unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan. (Unlilarning takrorlanishi xalq maqollarida ko'p kuzatiladi: O'zing o'ya bo'lsang ham, o'ying uyingda bo'lsin kabi.) [4,44].

Assonans she'riy matn tarkibida, ko'pincha, qofiyadosh so'zlar tarkibida kelib, she'riy nutqqa ko'tarinki ruh va o'ziga xos musiqiylik baxsh etadi. Chunonchi, [o'] hamda [u] harflari assonans hosil qilgan:

*O'ylanib o'tardim bu ko'chalardan,
Endi kulib o'tgum, o'ylanib o'tgum.
Jannat yuzlilar-la muboraklashib,
Beklar suhbatidan gul terib o'tgum.
Alvon gullar ekdim ko'ngil bo'stoniga!
Istiqlol mangu qol, O'zbekistonda!* ("Istiqlol mangu qol" she'ridan)
[o] hamda [a] harflari assonans hosil qilgan:
*Dilimdan so'z ochsam, g'uncha ochilgay,
Parilar qo'lida tuguncha ochilgay,
Shodlansam, shodliklar shuncha ochilgay,
Misli atirgulman tonggi raxshonda,
Istiqlol mangu qol, O'zbekistonda!* ("Istiqlol mangu qol" she'ridan)
*Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.* ("Ayolga baxt bering" she'ridan)

Bu kabi misollar shoira she'riyatida ko'plab uchraydi.

Geminatsiya. Badiiy nutqda keng qo'llaniladigan fonetik usullardan yana biri geminatsiyadir. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da mazkur hodisa "qo'sh undoshlik – ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi" sifatida izohlanadi [2,34]. "O'zbek tili tarixiy fonetikasi" o'quv qo'llanmasida esa bu hodisa "qo'shoqlanish" yoki "ikkilangan undosh" deb yuritiladi: "qo'shoqlanish– undoshlarning cho'zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o'zgarishlar sirasida ko'rib chiqish o'ta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo'la olishi bilan fonetik o'zgarishlarga o'xshaydi. Qo'shoqlanish, asosan, ikki unli orasida kelgan [k], [q], [t], [l] tovushlarida va faqat 2, 7, 8, 9, 30, 50 sanoq sonlarini nomlashda sodir bo'ladi. Bu sonlarni bir undosh bilan ham, ikkilangan undosh bilan ham talaffuz etish mumkin bo'lgan. Sanoq sonlar nomidagi bu xil qo'shoqlanish sabablari haligacha ochilmagan. Lekin katta, latta, yakka, yalla, chakki, ukki kabi so'zlardagi ikkinchi [t], [l], [k] lar tarixan morfologik ko'rsatkich bo'lib, ulardagi qo'shoqlanish singish (adaptatsiya) natijasidir degan fikrlar ham fanda mavjud [5,22]. Olim Adham Abdullayev esa "undoshlarni qavatlash" atamasini ishlatgan.

Undoshlarni qavatlab qo'llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan,

*Illohi qalqonsiz, illoh qo'rg'onsiz
G'iybatlar yirtmasin ko'ylakkinasin.
Illohi xushyorsiz, illoh bedorsiz,
Itlar tishlamasin yurakkinasin.*

Keltirilgan misollardagi takrorlar tarkibida undoshlarning qavatlanishi lirik qahramon tabiatidagi subyektiv holatni ifodalashga xizmat qilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Duch kelgan tovushni qavatlab qo'llab bo'lmaganidek, so'zda turli sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo'lavermaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Хасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фанлари номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2010, –26 б.
2. Хожиев А. Тилишunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Т.: ЎзМЭ, 2002.–168 б.
3. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. –Самарқанд: СамДУ, 2006.– 120 б.
4. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: Ўқитувчи, 1995.–88 б.
5. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Автореф.дисс... док.филол.наук.–Ташкент, 1992.– 43 с.
6. Мўминова З. Бешикларни асрагин дунё.–Тошкент: F.Фулом, 1988.–112 б.

7. Мўминова З. Ёнаётган аёл.–Тошкент: F.Ғулом, 1992.–92 б.
8. Ёўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.–Тошкент: Фан, 2006.–125 б.
9. Yusupova D., Yuldasheva D. Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetikasi.– Germaniya: "Globe Edit international Publishing Group" ISBN: 978-620-0-60879-6.– 2020.–125 p.
10. Yuldasheva D., Yusupova D. The value of silence in speech communication// XVI International Scientific-Practical Conference "Actual Problems of Improving Farming Productivity and Agroecology" (IPFA 2024). –E3S Web of Conferences 538, 05030 (2024).–14 June 2024.
11. Yuldasheva D.N. Sukut nutqiy muloqot komponenti. Monografiya.– Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2024.–162 b.